

O‘TKIR HOSHIMOV NASRIDA “ONA” OBRAZINING BADIY TAKOMILI (“Dunyoning ishlari” qissasi misolida)

Ikromjon Bobomurodov,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
II bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi O‘tkir Hoshimov nasrida ona obrazining badiiy talqini va uning asardan asarga takomillashuv jarayoni tadqiq etilgan. Xususan, “Dunyoning ishlari”, qissasidagi ona obrazlarining ruhiy holati va kechinmalarini o‘quvchiga yetkazib berishda foydalanilgan badiiy tasvirlar, avtobiografik va hayotiy faktlarning sintezi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”, ona obrazi, badiiy mahorat, avtobiografizm, hayotiy fakt, badiiy sintez, nasr.

Abstract. This article examines the artistic interpretation of the image of the mother in the prose of the great figure of Uzbek literature, Utkir Hoshimov, and the process of its improvement from work to work. In particular, the synthesis of artistic images, autobiographical and life facts used to convey the mental state and experiences of the mother images in the story “Such is life” to the reader is analyzed.

Keywords: Utkir Hoshimov, “Such is life”, the image of the mother, artistic skill, autobiographicalism, life fact, artistic synthesis, prose.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественная интерпретация образа матери в прозе великого деятеля узбекской литературы Откира Гошимова и процесс его совершенствования от произведения к произведению. В частности, анализируется синтез художественных образов, автобиографических и жизненных фактов, используемых для передачи читателю душевного состояния и переживаний образа матери в рассказе «Дела мира».

Ключевые слова: Откир Гошимов, «Дела мира», образ матери, художественное мастерство, автобиографизм, жизненный факт, художественный синтез, проза.

Kirish. Mazkur tadqiqotning obyekti – O‘tkir Hoshimov nasrida ona obrazi, predmeti esa uning “Dunyoning ishlari” qissasidagi badiiy talqinidir. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, psixologik va struktural yondashuv metodlaridan foydalanildi. Barcha millatlarda ona siymosiga yuksak ehtirom bilan qaraladi. Hech bir millat adabiyoti yo‘qki, unda ona madh etilmagan, unga bag‘ishlab she‘rlar va dostonlar yaratilmagan. O‘tkir Hoshimov asarlarida esa ona obrazi hayotning oddiy, ammo mazmunan teran jihatlari orqali yoritiladi.

O‘tkir Hoshimov ijodini bir xazina deb tasavvur qiladigan bo‘lsak, asarlaridagi “ona” obrazini xazinadagi eng qadrlil va qimmatbaho dur-u, gavharga qiyoslasak arziydi. Ijodkorning ijodiy merosini ona obrazisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Adib o‘z asarlarida ona siymosini tasvirlar ekan uni turli vaziyat va turli ruhiy holatlarda tasvirlaydi. Ba‘zan xushchaqchaq, ona tasvirini ko‘rsak, ba‘zan esa, huzunli, o‘ychan ona tasvirini ko‘ramiz. Har qanday holatda bo‘lmasin adib ijodidagi ona obrazini birlashtiruvchi umimiy xususiyatlar: mehribonlik, samimiylik, soddalikdir. Ijodkor yangidan yangi asarlar yozgani sari ona obrazi ham brogan sari mukammallashib sayqallanib boraveradi. Ayniqsa, “Dunyoning ishlari” qissasi ona siymosining badiiy jihatdan mukammal, hayotiy va ta’sirchan talqin etilgani bilan e’tiborga molikdir. Ushbu asar yozuvchining shaxsiy hayoti, xotiralari va kuzatuvlari asosida yaratilgani sababli unda avtobiografik unsurlar

bilan badiiy umumlashtirish uyg'unlashgan. Shu jihatdan mazkur mavzu ona obrazining badiiy takomilini o'rganish, yozuvchining badiiy mahoratini ochib berish nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek nasrida ona obrazi qadimdan muqaddas timsol sifatida tasvirlanib kelgan bo'lib, bu obraz milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va oilaviy munosabatlar tizimining markaziy unsurlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XX asr o'zbek adabiyotida ona obrazining badiiy talqini yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda O'tkir Hoshimov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Adib asarlarida ona obrazi nafaqat mehr-oqibat timsoli, balki ma'naviy ustunlik, sabr-toqat va hayotiy donishmandlik ramzi sifatida talqin etiladi.

Adabiyotshunoslikda Dunyoning ishlari qissasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan insoniy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar va ma'naviy poklik masalalarini yorituvchi asar sifatida baholangan. Xususan, o'zbek adabiyotshunoslari ona obrazini milliy xarakter va xalqona tafakkurning badiiy ifodasi sifatida izohlaydilar. Tadqiqotlarda ushbu qissa avtobiografik ruhda yozilgani, unda muallifning shaxsiy hayot tajribasi asosida yaratilgan ona obrazi umumlashgan badiiy timsol darajasiga ko'tarilgani ta'kidlanadi.

Ona obrazining badiiy talqini masalasi umumadabiy jarayonda ham keng o'rganilgan. Masalan, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, Baxtiyor Nazarov kabi adabiyotshunos olimlar o'z tadqiqotlarida o'zbek nasrida inson psixologiyasi, ayniqsa, ona obrazi orqali milliy ruhiyat va axloqiy qadriyatlarning ifodalanishini ilmiy asosda tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O'tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida yaratilgan ona obrazining badiiy takomilini aniqlash, uning g'oyaviy-estetik funksiyalarini ochib berish va obrazning milliy-ma'naviy mazmunini ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilingan.

1. Tarixiy-qiyosiy metod.

Ushbu metod yordamida o'zbek nasrida ona obrazining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy nuqtayi nazardan o'rganiladi hamda boshqa adiblar ijodidagi ona obrazlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

2. Struktural-semantik metod.

Mazkur metod asosida qissadagi ona obrazining semantik qatlamlari, xarakter xususiyatlari, nutq uslubi va badiiy detallar tizimi o'rganiladi. Bu usul obrazning ichki mazmuni va badiiy funksiyasini aniqlash imkonini beradi.

3. Psixologik tahlil metodi.

Ona obrazining ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi va hissiy holatlari badiiy psixologizm tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Bu metod obrazning insoniylik va ma'naviylik jihatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Shuningdek, badiiy psixologizm, obraz yaratish mahorati va realizm tamoyillari masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ham mazkur mavzuning nazariy asoslarini tashkil etadi. Ona obrazining badiiy takomili masalasini o'rganishda psixologik

realizm, avtobiografizm va milliy mentalitet kategoriyalari muhim ilmiy-metodologik tayanch sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, ona obrazi shaxsiy kechinmalar bilan ijtimoiy qadriyatlar uyg'unlashgan badiiy hodisa sifatida baholanadi.

Natijalar. "Dunyoning ishlari" qissasi O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazining eng yorqin va mukammal namunalaridan biridir. Asarda ona siymosi muallif nigohi orqali samimiy, sodda va chuqur mehr bilan tasvirlanadi. Qissada ona obrazining tashqi portreti emas, balki uning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari yetakchi o'ringa chiqadi.

Adabiyotshunos M.Qo'chqorova qissa haqida shunday yozadi: "Dunyoning ishlari" nafaqat O'tkir Hoshimov ijodida, balki o'zbek nasrida yaratilgan betakror qissalardan biri. Muallif unda munis, sabrli, oilasiga sadoqatli, mehribon, o'zganing dardini o'z dardidek qabul qiladigan, barcha g'am-gussalarni ichiga yutib yashaydigan xokisor o'zbek onalarining obrazini gavdalantiradi. Asar dunyoning turli xil tillariga qayta-qayta tarjima qilinib, xorijlik kitobxonlar va tadqiqotchilarning ham nazariga tushdi. Videofilm sifatida ishlanib, ekranlashtirilishi esa uning xalqimiz orasida yanada mashhur bo'lib ketishiga asos bo'ldi.[5.29-32] Qissa markazida "Ona" va unga parallel ravishda "jurnalist o'g'il" obrazlari turadi. Asarning "men" tilidan olib borilishi, hayotiy voqealar va real kishilar obrazining tiniq, jonli, samimiy va oddiy tasviri, asardagi kishi qalbini nurlantiruvchi yoqimli lirizm unsurlari, XX asrning 40-70-yillardagi Toshkent va toshkentliklar koloriti, poytaxt shevasi qissaning o'ta darajada milliy, haqqoniy va hayotiyiligini ta'minlagan asosiy sinchlardan hisoblanadi"

O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida ona obrazi an'anaviy idealizatsiyadan xoli, hayotiy va real ko'rinishda tasvirlaydi. Yozuvchi onani faqat mehribon, fidoyi shaxs sifatida emas, balki murakkab taqdir egasi, hayot sinovlaridan o'tgan, quvonch va iztiroblarni birdek boshidan kechirgan inson sifatida gavdalantiradi. Bu esa obrazning badiiy ishonchliligini oshiradi.

Adib nasrida ona – oila tayanchi, farzand tarbiyasining bosh mas'uli, jamiyatning axloqiy mezonlarini belgilovchi timsol sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi ona obrazini yaratishda xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va kundalik turmush manzaralaridan keng foydalanadi. Buni Gilam paypoq hikoyasi orqali ko'rib chiqamiz.

"O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi. Oxiri tomog'im xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmaymanu nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi. [2.17]

Qissadan o'rin olgan "Gilam paypoq" hikoyasida bolasi uchun sovuq kunda yalangoyoq chopib ketgan onaning dard yuqtirib olish voqeasi retrospektiv syujet orqali eslanadi. Onaning bolasi uchun o'zidan kechishi, qahraton qish sovuq'ida o'g'lini qutqarib

qolish uchun qilgan xatti-harakatlari onani bir umrga oyoq og'riq kasaliga muhtalo qilgani hikoya qilinadi. Yozuvchi "Gilam paypoq" hikoyasi orqali mehribon va farzandi uchun o'z sog'ligini fido qilgan ona obrazi yanada detallashtiriladi.

O'tkir Hoshimov ona obrazini yaratishda psixologik tahlil, ichki monolog, xotira va retrospektiv tasvir usullaridan mohirona foydalanadi. Yozuvchi ko'pincha mayda detallar orqali katta ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, onaning oddiy gaplari, sukuti yoki nigohi orqali uning ichki kechinmalari ochib beriladi. Badiiy tilning soddaligi va xalqona ohangi asarning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Yozuvchi murakkab badiiy bezaklardan ko'ra tabiiylikka urg'u beradi, bu esa ona obrazini o'quvchiga yanada yaqinlashtiradi.

"Dunyoning ishlari" qissasida avtobiografik unsurlar muhim o'rin tutadi. Asarda yozuvchining bolalik xotiralari, onasi bilan bog'liq voqealar badiiy qayta ishlanib, umumlashma obraz darajasiga ko'tarilgan. Bu jarayonda hayotiy faktlar badiiy tafakkur orqali qayta talqin qilinadi. Avtobiografik asos asarning samimiyligini oshirgan bo'lsa, badiiy sintez uni faqat shaxsiy xotira doirasida qolib ketishdan saqlaydi. Natijada ona obrazi individual shaxsdan ko'ra umumxalq timsoliga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov nasrida ona obrazi badiiy jihatdan yetuk, hayotiy va chuqur ma'noga ega timsol sifatida namoyon bo'ladi. Asardan asarga ijodkorning ona obrazini yaratishdagi badiiy mahorati yuksalib borganini kuzatish mumkin "Dunyoning ishlari" qissasida yozuvchi ona obrazini yaratishda yuksak badiiy mahorat ko'rsatib, avtobiografik va hayotiy faktlarni badiiy sintez asosida uyg'unlashtirgan. Ona siymosi orqali adib mehr-oqibat, fidoyilik, insoniylik kabi umuminsoniy qadriyatlarni yuksak darajada ifodalay olgan. Ushbu asar va undagi ona obrazi o'zbek nasrida muhim estetik va ma'naviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad S. Dunyoning ishlari qissasi haqida. –T.: Kamalak. 2016. –348 b.
2. Hoshimov, O'tkir. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 336 b.
3. Mirzayev, Saydulla. XXasr o'zbek adabiyoti: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: Yangi asr avlodi, 2005. –415 b.
4. Quronov Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 2004 y. –224 b.
5. Kўчқорова М. Она ҳақидаги икки қисса таҳлили / Ўзбек тили ва адабиёти, 2021, №4. – Б. 29-32.
6. Йўлдош Қ., Йўлдош М./ Бадий таҳлил асослари: о'қув қўлланма. –Т.: Камалак. 2016. –348 b.